

## “"Kundalik" elektron kundaligining veb-versiyasi uchun to'lovni amalga oshirishda 100% keshbek" aksiyasi qoidalari

2022-yil 26-avgust

Humans mobil ilovasida “"Kundalik" elektron kundaligining veb-versiyasi uchun to'lovni amalga oshirishda 100% keshbek" aksiyasi Humans sodiqlik dasturi doirasidagi “Humans” mas'uliyati cheklangan jamiyatining aksiyasi hisoblanadi, manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'chasi, 2-V uy, STIR 306624856. (Humans),

### 1. Aksiya haqida ma'lumot

1.1. Ushbu Qoidalarning matnida bosh harf bilan foydalanilgan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalarning ma'nosi, agar ushbu Qoidalarda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, [www.humans.uz](http://www.humans.uz) Saytida joylashtirilgan Humans sodiqlik dasturi qoidalarida, "Humans tovarlari va xizmatlari vitrinasi" xizmatidan foydalanish qoidalarida keltirilgan.

1.2. Aksiya ishtirokchilari – Mijozlar – "Humans tovarlari va xizmatlari vitrinasi" xizmatidan foydalanuvchi, Humans mobil ilovasida bank kartasini ulagan va Qoidalarning 2.1-bandida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirgan jismoniy shaxslar.

1.3. Aksiya o'tkaziladigan hudud: O'zbekiston Respublikasi.

1.4. Aksiya o'tkazilish davri: 26.08.2022 dan 31.12.2022 gacha.

### 2. Aksiyaning tavsifi

2.1 Aksiya o'tkazilish davri mobaynida va ushbu Qoidalarga rioya qilgan holda, Aksiya ishtirokchilari Humans mobil ilovasida "Kundalik" elektron kundaligining veb-versiyasi uchun to'lovni amalga oshirganda 100% Keshbek olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2.2. Bitta Ishtirokchi ushbu Aksiya doirasida Aksiyaning butun o'tkazilish davri davomida olishi mumkin bo'lgan Keshbekning maksimal miqdori 80 000 UZS ni tashkil qiladi.

2.3 Ushbu Qoidalarning 2.2-bandidagi cheklov shartlari Humans mobil ilovasida amalga oshirilgan "Kundalik" elektron kundalik obunasining barcha versiyalari uchun to'lovlarga nisbatan qo'llaniladi.

### 3. Yakuniy qoidalar

3.1. Ushbu Qoidalar 2022-yil 26-avgustdan kuchga kiradi. Humans bir tomonlama Humans Saytida tegishli xabarni joylashtirish orqali ushbu Qoidalarni o'zgartirish, Aksiyani bekor qilish huquqiga ega. Xabar berish sanasi tegishli ma'lumotlar Humans Saytida joylashtirilgan sana hisoblanadi. Humans Saytida tegishli ma'lumotlar e'lon qilingan vaqtdan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan va Aksiya uzaytirilgan yoki bekor qilingan deb hisoblanadi.

3.2. Ishtirokchi tomonidan Qoidalarning 2.1-bandida ko'rsatilgan harakatlarning bajarilishi, jismoniy shaxslarga qaratilgan oferta bo'lgan Qoidalar bilan to'liq va so'zsiz roziligini bildiradi.

3.2. Performance by the Participant of the actions specified in clause 2.1 of the Rules means full and unconditional agreement with the Rules, which is an offer addressed to individuals.

